

7. Shaffoflik va hisobdorlikni oshirish. Soliq ma'muriyatchiligi jarayonida shaffoflik va javobgarlikni oshirish soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Bunga soliq qarorlari qanday qabul qilinishi bo'yicha aniq yo'riqnomalarni e'lon qilish, soliq to'lovchilar tomonidan tushuntirishlar olish yoki qarorlar ustidan shikoyat qilish mexanizmlarini o'rnatish, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida muntazam tekshiruvlar o'tkazish kiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan soliq bazasini aniqlash tartiblarini yanda takomillashtirish chora-tadbirlari mamlakat iqtisodiy farovonligini ta'minlash va aholi turmush-tarzini yaxshilashga xizmat etuvchi harakatlar majmuasi deya hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev A., Shirinov S., *Soliq statistikasi va prognozi: O'quv qo'llanma/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtamaxsus ta'lim vazirligi; T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. –392b.*
2. Худойқулов С.К., «Молия ва солиқлар»: Дарслик. –Т.:“IQTISODIYOT”, 2020. – 554 б.
3. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S., *Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, –Toshkent: Sharq, 2009. - 448 b*
4. Курбонов З.Н., *“Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари” дис. И.ф.д. Тошкент.: БМА, 2008. 272 б.;*
5. Раджапов У., *“Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида солиқ тизимини такомиллаштириш” и.ф.н. илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс. Афтореферати. –Т:-2006. 9-б.*

BARQARORLIK MAQSADLARIGA ERISHISH IMKONIYATLARI

PhD Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna

Namangan davlat universiteti dotsenti

Soliyeva Nilufar Muxtorjon qizi

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ayni damda aholi sonining keskin o'sib bormoqda. Yigirmanchi asrning o'rtalaridan boshlab dunyo aholining soni 3 baravarga ko'paydi. 2022 yilda 8 milliard kishiga yetdi. BMT(Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ning prognozlariga ko'ra, dunyo aholisining soni 2100 yilga kelib deyarli 11 milliardga bo'lishi mumkinligini taxmin qilinmoqda. Biroq, yangi asrda 1970 yildan beri global o'sish sezilarli darajada sekinlashdi va yangi asrda dunyo aholisining barqarorlashishi kutilmoqda.

Bizning fikrimizcha, dunyo aholisining misli ko'rilmagan darajada ortib borishi 1950 yildan beri paydo bo'lgan ikki tendentsiyaga chambarchas bogliq:

birinchisi, insonlarning o'rtacha uzoq umr ko'rish yoshining bosqichma-bosqich o'sishi, shuningdek sog'liqni saqlash, ovqatlanish, shaxsiy gigiena va tibbiyot sohalarida olib borilayotgan keng ko'lamli yaxshilanishlar.

ikkinchisi, ko'p mamlakatlarda tug'ilishning yuqori darajasi.

Dunyo aholisi soni to'xtovsiz o'sishda davom etmoqda. 2100 yilga kelib aholi soni deyarli 11 mlrd. bo'ladi. Bu o'sish ko'p hollarda daromadi past va o'rtachdan past bo'lgan mamlakatlarda kuzatiladi.

Ohirgi 40 yillikning so'nggi o'n yilligida tugilishning o'sish sur'ati ancha tez.

Yashil, ekologik toza va tabiiylikka mos atamalar mamlakat qonunlari, davlat siyosati va davlat xizmatlari tomonidan belgilangan atrof-muhitni muhofaza qilishning qay darajada ekanligini bildiradi. Dunyodagi eng yashil mamlakatlar tabiiy muhitni saqlash va hatto qayta tiklash, resurslarni tejash, qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanmasdan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va fuqarolarning sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradigan amaliyotlarni qat'iy qilib o'rnatadilar. Xususan, (Shvetsiya, Daniya, Angliya, Finlayandiya, Shveysariya, Frantsiya, Kosta-Rika, Islandiya, Norvegiya, Irlandiya) [4] kabi mamlakatlardir.

Bunday siyosatlarga misol sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rag'batlantirish va CO₂ chiqindilarini va ko'mir va neft iste'molini kamaytirish, qayta ishlash dasturlari va jamoat transporti tarmoqlarini yaratish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqotlarni subsidiyalash kiradi. Hududlarning EPI (ekologik samaradorlik indeks) ballari qanchalik yuqori chiqsa hudud shunchalik yashil farovonlikka yaqin bo'ladi:

A) Ekotizim hayotiyligi,

B) Atrof-muhit holati,

C) Iqlim o'zgarishi kabi indekslar EPIning uchta "siyosat maqsadi"ning muhim bo'limlari hisoblanadi.

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda ekologik samaradorlik indeks ko'rsatkichlari

Mamlakat	ESI hisobi	ESIning oxirgi o'n yillikda o'zgarishi	Ekotizim muhimligi	Ekologik salomatlik	Iqlim o'zgarishlari
Buyuk Britaniya	77,7	23	62,3	83,9	91,5
Frantsiya	62,5	6,4	64	83,9	49,5
Germaniya	62,4	2,2	66,8	82	47,2
Avstraliya	60,1	10,3	62,3	86,4	43,8
Italiya	57,7	6	57,2	76,9	48,2
Yaponiya	57,2	3,2	59,6	82,5	41,3
AQSH	51,1	3,3	51,4	76,8	37,2
Polsha	50,6	NA	60	53	38,8
Kanada	50,0	4	52,5	85,9	28,2
Janubiy Koreya	46,9	1,8	48,8	73,3	30,9

Izoh: <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/785eco.pdf> ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Aholining tez ko'payishi barqarorlikka erishish muammolarini yanada kuchaytirishi mumkin. Kelajakdagi barqaror rivojlanishni ta'minlash va uning o'ziga xos usullarini qidirib topish zarur bo'lib qolmoqda. Barqaror rivojlanish

maqsadlariga bosqichma-bosqich erishish, ayniqsa, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasidagi islohotlar dunyoda ekologik ifloslanishni sekinlashishiga hissa qo'shishi mumkin. Tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlarda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga maxalliy va xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish sezilarli darajada ijobiy natijani beradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) inson va farovonlik o'rtasidagi aloqalarni o'rganadi. Xususan, "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori", shuningdek 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida barqaror rivojlanish maqsadlarining davomchisi sifatida qabul qilingan va 2030 yilgacha bo'lgan muddatgacha mo'ljallangan.

Ushbu O'zbekistonda «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan maqsadlar mamlakat ichidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishning turli jihatlarini qamrab olgan. Barqaror rivojlanish va farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun ikkita asosiy ma'lumot yig'ish maqsadga muvofiq bo'ladi. [1] Bu jarayon mamlakat hududlarini barqarorlikka erishish jarayonida qanchalik yaqin yoki uzoqda ekanligini o'lchaydi. Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga erishish odamlarga ham, jamiyatga ham foyda keltirishi mumkin. Biroq, barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan harakatlar odamlarni xatti-harakatlarini o'zgartirishga va ularning farovonligini oshirishga (hech bo'lmaganda qisqa muddatda) undashga qaratilgan ba'zi keskinliklarni yuzaga keltiradi.

Masalan, Frantsiyada qo'shimcha yoqilg'i solig'i joriy etilganda keng ko'lamli ijtimoiy harakatlar boshlandi. Yoqilg'i solig'i yanada barqarorlik jarayonlarini uyg'otishning samarali usuli hisoblansa-da, ular avtomobillardan ko'proq foydalanishni talab qiladigan yirik shaharlardan tashqarida yashovchi odamlarning turmush tarzi va xarid qobiliyatiga qo'shimcha bosim o'tkazadi, chunki ular uchun kamroq jamoat transporti imkoniyatlari mavjud. Bugungi kunda dunyoda Iqlim o'zgarishi va uglerod yoqilg'ilariga bo'lgan ishonchimizni kamaytirish uchun keskin va zudlik bilan choralar ko'rish zarurati haqida ogohlantiruvchi "Tabiiylikning yo'qolib borishi" kabi atrof-muhitni himoya qiluvchi harakatlar mavjud.

Farovonlik bilan bog'liq o'n ettita ko'rsatkichlar [5] - barqaror rivojlanishda odamlar va sayyora manfaatlariga qanchalik mos kelishini, shuningdek, yanada murakkab siyosat sa'y-harakatlarini talab qiladigan o'ziga xos keskinliklar mavjudligini batafsilroq ko'rib chiqishga harakat qiladi. [2] Shuningdek, insonlarning yashash farovonligini pasaytirmasdan, ekologik barqaror va ijtimoiy adolatga o'tish yo'lini belgilashni talab qiladi [3] Har bir SDG (**Sustainable Development Goals**)ning maqsadlari inson farovonligini oshirish nuqtai nazaridan nisbiy ahamiyatiga egadir. Barcha BRMlar muhim, ammo ba'zi BRMlar boshqalarga qaraganda farovonlikka ko'proq mos keladi va kamroq vaqt talab qiladi deb hisoblaymiz. Agar mamlakat byudjeti cheklangan bo'lsa farovonlikni oshirish bilan eng kuchli bog'liq bo'lgan BRMlarga ustuvorlik berilishi mumkin.

Farovonlik ko'rsatkichlari bilan salbiy bog'liq bo'lgan BRMLar bo'yicha oldinga siljish boshqa bog'likni bartaraf etish uchun yanada murakkab siyosat choralari talab qiladi. BRMLarni farovonlik nuqtai nazaridan ochish orqali biz ularning nisbiy ahamiyati vaqt o'tishi bilan va mintaqaviy kontekstda qanday o'zgarishi mumkinligini ko'rsatamiz. Ushbu fikrlar odamlar va sayyoramiz farovonligini oshirishga intilayotgan butun dunyo mintaqalaridagi siyosatchilarga keng ko'lamli siyosat bo'yicha ko'rsatmalar berishi mumkin.

Izlanishlarimizga ko'ra, BRM indeksi ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mamlakatlar sub'ektiv farovonlik (SWB) bo'yicha yaxshiroq natijalarga erishadi - masalan, Skandinaviya mamlakatlari ikkala reytingda ham birinchi o'rinda turadi [3]. Bu insonlar farovonligini oshirishga intilayotganda iqtisodiy rivojlanishga yaxlit yondashuv muhimligini ko'rsatadi. BRM indeksi va SWB o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash uchun eng mos model bu - BRM indeksining yuqori darajalarida yuqori SWB bilan kuchliroq bog'liqligidir. Bu shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish dastlabki bosqichlarda farovonlikning muhim omili bo'lib, keyinchalik rivojlanish tsiklida o'zgarib borish xususiyatiga ega. Boshqacha qilib aytganda, bu natija inson farovonligi nuqtai nazaridan barqaror rivojlanishga marjinal daromadlarni oshirishni nazarda tutadi.

Barqaror rivojlanish va farovonlik o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilganda vujudga keladigan munosabatlar qaysi maqsadlar mamlakatdagi farovonlikning o'zgarishiga eng kuchli ta'sir ko'rsata olishi mumkinligini aniqlash imkoniyati tugiladi. Nihoyat, biz farovonlikning determinantlarini ko'rib chiqamiz va ularni barqaror rivojlanish maqsadlari farovonlikka ta'sir qilish yo'llari sifatida tahlil qilamiz. Umuman olganda, BRM juda muhim, ammo murakkab maqsadlar to'plamidan iborat ekanligi aniq, chunki uni to'la qonli amalga oshirish uchun kuchli birlashuv va qat'iy nazorat kerak bo'ladi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash imkoniyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- A) Yashil energetika sohasini qo'llab-quvvatlash
- B) Ekoturizm rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlari tahlili qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish
- C) Ekomahsulotlarni ishlab chiqarishga e'tibor berish, O'zbekistonda bio, eko yorlig'i ostida mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish,
- D) Chiqindilar ustidan qat'iy nazorat qilish, hududda qayta ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bennett, N.J., Cisneros-Montemayor, A.M., Blythe, J. et al. (2019): *Towards a sustainable and equitable blue economy. Nature Sustainability*, 2, 991-993 doi:10.1038/s41893-019-0404-1
2. OECD Better Life initiative Compendium of OECD well-being indicators-2011 y/ <https://www.oecd.org/sdd/47917288.pdf>
3. Azen, R., and Budescu, D. V. (2003): *The dominance analysis approach for comparing predictors in multiple regression. Psychological Methods*, 8, 129-48.
4. <https://www.greenmatch.co.uk/blog/greenest-countries>
5. <https://www.oecd.org/sdd/47917288.pdf>